

ILM YO`LIDA FIDOYILIK....

Sabirova Nasiba Ergashevna

Xorazm VPYMO’MM “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri, f.f.d.

Bu gulshan ichra yo`qdur baqo guliga sabot
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik birla ot.

Alisher Navoiy

Inson dunyoga kelar ekan, uning hayoti davomida kamol topishida Ustozlari ko`p bo`ladi. Barcha Ustozlar ham shogirdlar uchun aziz va faxrlidirlar. Biroq shunday murabbiylar bo`ladiki, ular shogirdlari kamoli uchun, orzularining ushalishi uchun, ilm yo`lida va hayotda o`z o`rnini topib olishlari uchun borini, butun kuchini, umrini sarf qiladilar, hech narsani ayamaydilar. Domla Rahmatilla Barakayev ham ana shunday mehribon Ustoz, jonkuyar maslahatgo`y, har qanday vaziyatda ham shogirdlari uchun bor kuchini beradigan fidoyi insonlardan biridir. O`zbek bolalar adabiyotini tadqiq etishga samarali hissa qo`shib kelayotgan serqirra olim Rahmatilla Barakayev bugun 70 yoshga to`ldilar. Ushbu qutlug` ayyom munosabati bilan men ham Ustozga o`z dil izhorlarimni yozishni jazm etdim. Shu o`rinda Ustoz Rahmatilla Barakayevning ilmiy merosiga bir nazar tashlasak. O`zbek bolalar adabiyoti tadqiqotchisi sifatida filologiya fanlari nomzodi, professor Rahmatilla Barakayev o`zbek bolalar adabiyoti tarixi, hozirgi o`zbek bolalar adabiyoti taraqqiyoti tamoyillari, adabiy aloqalar, tarjima tarixi va nazariyasi bo`yicha taniqli mutaxassis. Ustoz o`zbek bolalar adabiyotining paydo bo`lishi, shakllanishi, taraqqiyot tarixi muammolarini o`rganib umumlashtirgan. XX asr va istiqlol davri o`zbek bolalar she’riyati takomili xususiyatlarining ilmiy-nazariy jihatdan o`ziga xos belgilarini ko`rsatishga erishgan. Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G`afur G`ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Hamza Imomberdiyev, Dilshod Rajabov, Abduraxmon Akbar singari shoirlar ijodining o`zbek bolalar she’riyati takomilida tutgan o`rnini ko`rsatishga erishgan. Mazkur tadqiqotlar natijalari oliy ta’lim tizimiga joriy qilingan. Ustozning uch yuzga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari, jumladan, oliy o`quv yurtlari uchun “Bolalar adabiyoti” o`quv qo’llanma va darsligi, monografiyalari: “O`zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi”, “Badiiy tasvir mahorati”, hammualliflikda “Toshkent shoirlari”, “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” kabi kitoblari chop etilgan. Bugungi kunda Ustozning ilmiy merosi nafaqat talabalar, doktorantlar, tadqiqotchilar, balki ona tili va adabiyot fani o`qituvchilari, maktabgacha ta’lim tarbiyachilari uchun dasturulamaldir. Bilamizki, filologiya yo`nalishida ko`pgina

tadqiqotchilar ilmiy ishlarini himoya qilish uchun Toshkent shahriga ya’ni, O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O`zbek tili, adabiyoti va folklori institutiga tashrif buyuradilar. Men ham barcha tadqiqotchilar qatori ushbu ulug` dargohga qadam ranjida qildim. Hozir o`ylab qarasam, bunga ham 15 yil bo`lib qolibdi. 2008-yilda birinchi marta Akademik To`ra Mirzayev, Mamatqul Jo`rayev, Asqar Musoqulov, Shomirza Turdimov, Jabbor Eshonqulov kabi folklorshunos olimlarimiz bilan uchrashish baxtiga muyassar bo`lganmiz. Ustozlar qatorida bizlarni, yosh tadqiqotchilarni rahmatli Ustozimiz Safarbay Ro`zimboyev Rahmatilla Barakayev bilan ham tanishtirdilar va aytdilarki, o`zbek bolalar adabiyoti tadqiqotchisi, bolalar folklori bo`yicha ham o`zlariningizni qiziqtirgan savollaringiz bo`lsa so`rab olishlaringiz mumkin deganlar. Ilk uchrashuvdayoq biz Ustoz Rahmatilla Barakayevda samimiylilik, beg`uborlik, mehrni his etdik. Bolalar adabiyotini tadqiq etganliklari uchunmi, Ustozning bolalarcha tabassumi, sofko`ngilliliqi, oddiyligi, kamtarligi bizlarni o`ziga tortdi. Ba`zi sabablarga ko`ra ilmiy ishimizning himoyasi o`n yilga cho`zildi. Oradan ancha vaqt o`tib, 2018-yilda dissertatsiyamni olib, yana men uchun qadrli bo`lgan dargohga keldim. Ustozlarim Akademik To`ra Mirzayev, professorlar Mamatqul Jo`rayev, Shomirza Turdimov, Jabbor Eshonqulov kabi olimlarimiz qatori Ustoz Rahmatilla Barakayev ham mehr to`la tabassum bilan kutib oldilar. Bilasizki, musofirchilikda insonga nafaqat so`zlar, balki nigohlar ham ta’sir qiladi. Lekin men bu dargohda o`zimni begonadek sezmadim. Jumladan, Folklor bo`limi barcha qizlarining, ilmiy kotibning qo`llab-quvvatlashlari shu bilan birga himoya jarayonida hujjatlarni rasmiylashtirishda Ustozga ko`p murojaat qilganmiz. To`g`ri, ixtisosligimiz folklorshunoslik bo`lsa-da, Ustozdan maslahatlarni olib turganmiz. Ustoz o`zlarining beminnat maslahatlarini hech qachon ayamaganlar. Hamma vaqt beg`araz yordam bergenlar. Vobkentliklarga xos bo`lgan samimiyat, bolalarga xos bo`lgan oddiylik, xokisorlik bilan munosabatda bo`lishlari biz tadqiqotchilarni e’tiborini tortgan. Shuningdek, Ustoz Rahmatilla Barakayevning o`z faoliyatini pedagoglikdan, ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi sifatida boshlaganliklari, xalq ta’limi tizimida ham samarali faoliyat olib borganliklarini alohida ta’kidlash joiz. Chunki men Xorazm viloyati pedagoglariga ona tili va adabiyotdan dars beraman. Bizning markazimizda barcha fan o`qituvchilari o`zlarining malakasini oshiradilar. Jumladan, boshlang`ich sinf o`qituvchilari ham. Ustoz muallifligi ostida chop etilgan “Bolalar adabiyoti” darsligi nafaqat talabalar, balki o`qituvchilar uchun ham zarur manba sifatida xizmat qilayotganligini aytib o`tish joiz deb bilaman.

Shunday bir chashma borki, undan abadiy buloq qaynab chiqib turadi. U-ilm chashmasi. Ustoz ham ana shunday ilm chashmasini eslatadi. Men ana shu chashmadan bahramand bo`lganimdan faxrlanaman. Zero Ustozning o`zbek bolalar

PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI

adabiyoti taraqqiyotidagi xizmatlari g`oyat serqirra, samarali va foydalidir. Ustoz ilm olamida o`z o`rniga ega fidoyi olim, e`tiqodiga sobit komil inson, shogirdlar uchun bag`rikeng, talabchan Ustoz, chin ma`nodagi ma`naviyatchidir. Mana bugun Ustoz Rahmatilla Barakayev 70 bahorni qarshilayaptilar. Inson umriuni yoshiga qarab emas, balki yashab o`tgan umrining mazmuniga, qilgan ishlari qarab baholaydilar. Shunday ekan, Ustoz o`zining qilgan ishlari, tarbiyalagan shogirdlari bilan, sermazmun hayoti bilan ko`plab insonlarga ibrat bo`ladigan insonlardan biri, desam xato qilmagan bo`laman. Umrning nurafshon yo`li Sizga muborak bo`lsin, Ustoz! Ustozning kelgusidagi faoliyatiga ulkan yutuqlar tilab 70 yoshlari bilan samimiy muborakbod etaman!